

VOLUME-1, ISSUE-12

BO`RTMA NEMATODA XILLARI VA ULARNING ZARARI.

Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti

1-bosqich talabasi **Xaydarova Nodirabonu**

Annotatsiya: ushbu tezis *bo`rtma nematoda* uni hillarining o`simliklarga keltiradigan zararlari yoritib berilgan bo`lib, lichinkalrining va voyaga yetgan organizmlarining hayot sikli haqida malumot berilgan.

Annotation: this thesis describes the damage caused by the nematode *nematode* species to plants, and provides information about the life cycle of the larvae and adults.

Аннотация: в данной диссертационной работе описывается вред, наносимый нематодными видами нематод растениям, и приводятся сведения о жизненном цикле личинок и взрослых организмов.

Kalit so`z: *lichinka, parazit, tuxum, invaziya, bo`rtma*

Key word: larva, parasite, egg, invasion, relief

Ключевые слова: личинка, паразит, яйцо, инвазия, рельеф.

Bo`rtma nematodalari (Meloidogyne) –o`simliklarning yer osti qismlari (ildizi, tugunagi) parazitlari. O`simliklarning nematoda zararlagan qismida har hil bo`rtma paydo bo`ladi. Bo`rtma nematodalarida jinsiy dimorfizm juda yaxshi rivojlangan; voyaga yetgan erkagi ipsimon , uzunligi 1.5-2 mm bo`lib , ozilanmaydi , tuproqda yashaydi . Urg`ochilari noksimon shaklda , maxsus stileti yordamida o`simlik hujayralarini so`rib oziqlanadi. Urg`ochi nematode maxsus tuhum xaltaga 100 taga yaqin tuxum qo`yadi. Tuhumdan lichinkalar tuproqqa chiqib , o`simlik ildizini zararlaydi . Qulay iqlim sharoitida yil davomida nematoidalarning bir necha nasli rivojlanadi.

O`zbekiston va boshqa O`rta osiyo Respublikalarida bo`rtma nematodalarning 5 turi ekinlarga ziyon keltiradi . Sabzavot va poliz ekinlariga janubiy (**M.incognia**) va araxis (**M.arenaria**) nematodalari katta ziyon keltiradi. Janubiy xududlarda g`

o`za va boshqa ekinlarga g`o`z abo`rtma nematodasi *M.acrita* katta zarar yetkazadi. Bo`rtma nematodalari yengil tuproqli maydonlarda ekinlarga ayniqsa , katta ziyon keltiradi , hosilning 40-60% ini nobut qiladi. Nematoda ayniqsa bug`doy , bodring , pomidor, qovun , kartoshka , kanop , bazan g`oza kabi 200 dan ortiq o`simliklarga katta ziyon yetkazadi katta ziyon yetkazadi.

Bug`doy nematodasi (Anguina tritici) bug`doy va ayrim boshoqli ekinlarga ziyon keltiradi zararlangan bug`doy boshoqlarida don o`rniga nematodaning bo`rtmasi hosil bo`ladi. Bo`rtma ichida 15-17 minggacha anabioz holatidagi nematoda lichinkalari bo`ladi . Quruq donlarda lichinkalar 20yilgacha tirik saqlanishi mumkin. Lichinkalar don bilan nam tuproqqa tushganida suv shimib bo`kkan bo`rtmadan

VOLUME-1, ISSUE-12

tuproqqa chaqadi va bu bug`doy maysalari ildizi orqali barg qo`ltig`iga kirib oladi. Bug`doy boshoq chqarmay otganida gul tugunchasiga o`tib oladi ; anashu joyda oziqlanib , voyaga yetadi va ko`payadi. Urug`langan urg`ochi nematodalar 2500 gacha tuxum qo`yadi , har bir tuxumdan invaziiali lichinka chqadi.

Kartoshka nematodasi (Ditylenchus destr uctor) kartoshkada parazidlik qilib , hosildorlikni keskin kamayishiga sabab bo`ladi. *Sitrus mevalar paraziti (sitrutes)* o`simlikni ildizida parazitlik qiladi.

Xulosa: Bo`rtma nematoda parazit hisblanb juda ko`p o`simliklarda parazitlik qiladi. Bu holat o`simliklarni kam hoslikka ularni nobud bo`lishiga olib keladi. Bo`rtma nematoda hillarni va ularning o`simlikka zararini yahshilab o`rganib va buni bartaraf etish uchun yangi usul metodlarni ishlab chqarilsa o`simliklarni nobud bo`lishini oldini oladi va sermahsul navlarni yetishtirishga sabab bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova "Umurtqasizlar zoologiyasi" .O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2006.
2. S.Dadayev, O.Mavlonov "Zoologiya". Toshkent "IQTISOD-MOLIYA"2008
3. O.Mavlonov . 7-sinf darslik"Zoologiya" . Toshkent-2017